

**KASBIY RIVOJLANISHDA TA'LIM MUHITI VA MOTIVATSIYA
O'ZARO BOG'LIQLIGINING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Maxmudova Feruzaxon Abduraxmon qizi

Oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi

feruzochka1998@gmail.com

+998914791410

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim muhiti va motivatsiyaning o'zaro bog'liqligi kasbiy rivojlanish jarayonidagi muhim pedagogik omil sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot Andijon davlat pedagogika institutida o'tkazilib, turli fakultet talabalarining darsdan tashqari faoliyat orqali kasbiy motivatsiyasi o'rganilgan. Kuzatish, so'rovnoma, psixologik test va tajriba-sinov metodlari asosida ichki va tashqi motivatsiya ko'rsatkichlari aniqlanib, jins va hudud omillari bo'yicha farqlar tahlil etilgan. Natijalar talabalarning ichki motivatsiyasi darsdan tashqari faoliyat, shaxsiy ishtirok va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot pedagogik jarayonda motivatsion muhitni shakllantirish, interfaol metodlar va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ilmiy asosda isbotlaydi.

Abstract: This article analyzes the interrelation between the educational environment and motivation as an important pedagogical factor in the process of professional development. The research was conducted at Andijan State Pedagogical Institute and examined the professional motivation of students from different faculties through extracurricular activities. Observation, survey, psychological testing, and experimental methods were applied to identify indicators of intrinsic and extrinsic motivation, as well as to analyze differences based on gender and regional factors. The results showed that students' intrinsic motivation is directly related to extracurricular activity, personal participation, and the social environment. The study scientifically substantiates the importance of forming a motivational environment, applying interactive methods, and providing psychological support in the educational process.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь образовательной среды и мотивации как важного педагогического фактора в процессе профессионального развития. Исследование проведено в Андижанском государственном педагогическом институте и направлено на изучение профессиональной мотивации студентов различных факультетов через внеаудиторную деятельность. Использовались методы наблюдения, анкетирования, психологического тестирования и экспериментального анализа для выявления показателей внутренней и внешней мотивации, а также различий по гендерному и региональному признакам. Результаты показали, что внутренняя мотивация студентов напрямую связана с их внеаудиторной активностью, личным участием и социальным окружением. Исследование научно обосновывает важность формирования мотивационной среды, применения интерактивных методов и психологической поддержки в образовательном процессе.

Kalit so'zlar: ta'lim muhiti, motivatsiya, ichki va tashqi motivatsiya, darsdan tashqari faoliyat, kasbiy rivojlanish, psixologik omillar, pedagogik asoslar.

Keywords: educational environment, motivation, intrinsic and extrinsic motivation, extracurricular activities, professional development, psychological factors, pedagogical foundations.

Ключевые слова: образовательная среда, мотивация, внутренняя и внешняя мотивация, внеаудиторная деятельность, профессиональное развитие, психологические факторы, педагогические основы.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning kasbiy shakllanishi va o'zini anglash jarayonida motivatsiyaning o'rnini yanada chuqurroq o'rganishni talab etmoqda. Talabalarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish ularning o'qishdagi faolligi, mustaqilligi va o'z kasbiga bo'lgan ijobiy munosabatini kuchaytiradi. Shu bois, pedagogik faoliyatda ta'lim muhiti va motivatsiyaning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning maqsadi — darsdan tashqari faoliyatlar orqali talabalarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirish

omillarini aniqlash va ularni pedagogik asoslarda takomillashtirish yo'llarini belgilashdan iborat.

Metodlar

Tadqiqot 2024-yilda Andijon davlat pedagogika instituti bazasida o'tkazildi. Unda turli yo'nalishlardagi 100 nafar talaba ishtirok etdi. Quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi: kuzatish va suhbat, so'rovnoma (anketalashtirish), psixologik test, tajriba-sinov ishlari va matematik-statistik tahlil (t-test). Tajriba davomida darsdan tashqari faoliyatlar — konferensiyalar, ijodiy uchrashuvlar, olimpiadalar, tavlovlar kabi darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali motivatsiyani rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari talabalarda ichki va tashqi motivatsiya darajalari bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Jins omili bo'yicha: ayollar ichki motivatsiya ko'rsatkichi bo'yicha erkaklardan yuqori natija ko'rsatgan ($t = 3.08$; $p < 0.01$), tashqi ijobiy motivatsiyada ham ayollar ustun ($t = 2.47$; $p < 0.05$), erkaklarda esa tashqi salbiy motivatsiya yuqoriligi aniqlangan ($t = 7.27$; $p < 0.001$). Hudud omili bo'yicha: ichki motivatsiya tumanlik talabalar foydasiga yuqoriroq ($t = -4.13$; $p < 0.001$), tashqi ijobiy motivatsiya esa shahar talabalarida nisbatan yuqori ($t = 3.71$; $p < 0.01$). Darsdan tashqari faoliyatlarda faol ishtirok etgan talabalar ijodiy fikrlash, ijtimoiy faollik, kommunikativ ko'nikmalar va kasbiy o'ziga ishonch bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatdi. Bu esa ichki motivatsiyaning sezilarli darajada oshganini, tashqi motivatsiya kamayganini va barqaror kasbiy qiziqish shakllanganini isbotlaydi.

Muhokama

Olingan natijalarga ko'ra, shaxsning ichki ehtiyojlari va o'zini anglash darajasi ortgan sayin, uning motivatsion faolligi ham kuchayadi. Ayollar va tumanlik talabalar ichki motivatsiyada yuqori natijalarga erishgani, ularning o'zini namoyon etish, ijodiy fikrlash va mas'uliyat hissi kuchli ekanligini ko'rsatadi. Shahar talabalarining tashqi motivatsiyasi yuqoriligi esa ijtimoiy0 rag'bat, tan olish va baholanish ehtiyoji bilan bog'liq. Pedagogik jihatdan bu shuni anglatadiki,

motivatsiyani rivojlantirish uchun ta'lim muhiti shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlikka asoslangan va rag'batlantiruvchi bo'lishi zarur.

Xulosa

1. Talabalarning kasbiy motivatsiyasi ta'lim muhiti, jins, hudud va darsdan tashqari faoliyat turlariga bog'liq holda o'zgaradi.
2. Darsdan tashqari faoliyatlar ichki motivatsiyani oshirib, tashqi salbiy motivatsiyani kamaytiradi.
3. O'qituvchining metodik mahorati va psixologik qo'llab-quvvatlovi motivatsion muhitni mustahkamlaydi.
4. Motivatsiyani rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida interfaol metodlar, refleksiya, shaxsiy baholash va ijtimoiy loyihalarga e'tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

5. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, 1977.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — Москва: Политиздат, 2008.
3. Maslow A. H. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1954.